

DORIVOR AMARANT O‘SIMLIGINING AHAMIYATI

Yuldashev Akmal Axmadjonovich

AndDUPI fakultet dekani, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: a.yu/genetikus@mail.ru

Abduxalilova Madinaxon Abdurayim qizi

AndDUPI Aniq va tabiiy fanlar fakulteti, biologiya yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

E-mail: .madinaxon14092004@mail.ru

ANNOTATSIYA

Maqolada dorivor o‘simliklarning ahamiyati va amarant o‘simligining sistematik, geobotanik tavsifi, shuningdek, ushbu o‘simlik tarkibiga kiruvchi ayrim moddalarning inson salomatligida tutgan o‘rni haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Amaranthus, amaranthaceae, antioksidant, skvalen, gipoksiya, xolisterin, metabolitik.

IMPORTANCE OF MEDICINAL PLANTS AND AMARANTH

ANNOTATION

The article provides information on the importance of medicinal plants and a systematic, geobotanical description of the amaranth plant, as well as the role of certain substances in this plant in human health.

Keywords: Amaranthus, amaranthaceae, antioxidant, squalen, hypoxia, cholesterol, metabolic.

Mamlakatimiz inson salomatligi uchun foydali bo‘lgan o‘simlik turlariga nihoyatda boy. Farmaseftikaning jadal sur‘atlar bilan rivojlanishi va yangi yuqori samarali sintetik dorilar yaratilishiga qaramay dorivor o‘simliklar va dorivor

mahsulotlarga bo‘lgan talab kundan kunga ortib bormoqda. Bu o‘simliklardan bugungi tezkor globallashuv davrida sohadagi qator muammolarni hal etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2018-yil 12-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida Xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3968-sonli, 2020-yillning 10-aprelidagi “O‘zbekiston Respublikasida Xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4668-sonli, 2020-yil 10-apreldagi “Yovvoyi holda o‘svuchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4670-sonli qarorlari qabul qilindi. Dorivor o‘simliklar va ulardan olinadigan preparatlarga talabni yanada oshirishga sabablardan biri, sintez yo‘li bilan olingan har bir kimyoviy dorivor preparatni uzoq vaqt uzluksiz ravishda iste‘mol qilish, inson va hayvonlar organizimida turli ko‘ngilsiz holatlarga olib kelishidir. Shunga ko‘ra butun dunyoda o‘simlik dorivor preparatlari bo‘lgan – fitopreparatlarga va dorivor o‘simliklarga bo‘lgan ehtiyoj ko‘paymoqda [1].

O‘zbekiston tibbiyotida qo‘llaniladigan dori vositalarining 38-40 foizini dorivor o‘simliklardan olinadigan preparatlar tashkil qiladi. Ba‘zi og‘ir kasalliklarni davolashda ishlatiladigan muhim ahamiyatli ayrim dorivor preparatlarni (yurak glikozidlari, qator alkaloidlar, terpenlar, saponinlar, steroid, fenolli birikmalar va boshqa biologik faol moddalar)shu vaqtgacha sintez yo‘li bilan olib bo‘lmaydi. Ularni olish manbai hozirgi vaqtgacha faqat o‘simliklar bo‘lib qolmoqda [2].

Yer yuzida dorivor o‘simliklarning 10-12 ming turi borligi aniqlangan. 1000 dan ortiq o‘simlik turining kimyoviy va farmokologik xossalari tekshirilgan. O‘zbekistonda dorivor o‘simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud [3]. Shulardan biri *amaranthus* o‘simligidir.

Amarant-*Amaranthus* amarantdoshar-*Amaranthaceae* oilasiga mansub o‘simlik bo‘lib, Amerika, Yevropa, Afrika, Osiyo va Rossiya viloyatlarida o‘stiriladi. O‘zbekiston florasida *amaranthus*ning bir avlodi va 10 ta turi o‘sadi [2]. Dorivor maqsadlarda *amaranthus* moyi diqqatga sazovor hisoblanadi. Amarant moyining dorivorlik va foydali xususiyatlari moddani tashkil etuvchi ikkita komponentga

asoslangan kuchli antioksidant bo‘lgan E vitamin, skvalen, immunitetni faol tarzda mustahkamlanishida ahamiyatga ega, amarant moyida skvalen moddasi mavjudligi aniqlangani davrimizning eng muhim bo‘lgan kashfiyotlaridan biri hisoblanadi. Tibbiyotda alohida o‘ringa ega bo‘lgan bu modda 1906-yili Yaponiyalik olim Mitsumaro Sudjimoto tomonidan dengiz tubida hayot kechiruvchi akula jigaridan ajratib olingan. Ma’lumotlarda qayd etilishicha, dengiz chuqurligida yashovchi akulalarning gipoksiya sharoitida yashashi uchun skvalen o‘ta muhim modda ekan [4].

Bundan tashqari amarant moyi tarkibida foydali yog‘ kislotalari, A, B, D guruh vitaminlari mavjud. Uning shunday tarkibi tufayli amarant moyi quyidagi ta’sirlarga ega hisoblanadi, immunitet tizimini mustahkamlaydi, yallig‘lanishga qarshi xususiyatlarga ega, qon tiqinlari shakllanishiga to‘sqinlik qilib, xolisterinni tushiradi, qon tomirlarini kuchaytiradi, metabolitik jarayonlarni tiklaydi [5].

Dorivor o‘simliklarga bo‘lgan talab ortib borayotgan bu davrda dorivor o‘simliklarni asrab avaylash va ularni yanada chuqquroq o‘rganish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Shu asnoda dorivor o‘simliklar orasida alohida o‘ringa ega bo‘lgan amarant o‘simligini vegetatsiya davrida anatomik tuzilishini o‘rganish o‘simlikning dorivorlik xususiyatlari qay tartibda o‘zgarib borishini tahlil etish imkonini beradi. Shunga ko‘ra o‘simlik vegetatsiyasini unib chiqish, o‘shish, shonalash, gullash va pishish fazalarida anatomik jihatdan o‘rganib fundamental tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Azimova Dilnoza Jigar va o‘t yo‘llari kasalliklarini davolashda qo‘llaniladigan dorivor o‘simliklar // Journal of natural Science 2022. №1 (6). – B 131-132.
2. Ahmedov O‘., Ergashev A., Abzalov A. va boshqalar. Dorivor o‘simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiya. Toshkent 2018. – B 45-46.
3. Toxirov B.B., Dorivor o‘simliklarning o‘ziga xos xususiyatlari haqida yangi ma’lumotlar // Science and education scientific journal 2022. №3 – B 112.
4. Кретов И.Т., Соболев С.Н., Мирошниченко Л.А., Жаркова И.М . Масло из семян амаранта // масложировая промышленность. 2006. №1. – С.22-23.
5. Sala M., Berardi S., Bondioli P. Amaranth seed: the potentials // Riv. Ital. sostanze grasse. 1998. Vol. 78. N11. – P 503-506.